Lotin Amerikasi mamlakatlarida qishloq xo'jaligi va yer munosabatlarini isloh qilish tartibi ham qiziqish uyg'otadi, zero, ushbu davlatlarda kollektiv (jamoaviy) mulkchilikdan voz kechish va xususiy mulkchilikni belgilash tizimi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Afrika davlatlarida yer munosabatlari tartibga solishdagi o'ziga xoslik shundaki, ushbu davlatlar ko'p yillar davomida rivojlangan davlatlarning mustamlakasi bo'lganligi sababli ularning qonunchiligi va mahalliy xalqlarning yerdan foydalanishdagi kundalik odatlari aralashib ketgan. Hozirda aksariyat Afrika davlatlarida ham yer maydonlari xususiylashtirilmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarida yerga nisbatan mulk huquqi [8, 1–3-b.] – Amerika huquqiy tizimining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning asosida ildizlari Angliya feodal huquqiga borib taqaladigan va AQSh sharoitlariga moslashgan odat huquqi yotadi. AQShda yerlarning asosiy qismi, xususan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan haydaladigan yerlarning 98 foizi xususiy mulk hisoblanadi. Federal hukumat egaligida katta yer maydonlari bo'lsa-da, ularning asosiy qismi cho'l va tundra zonalari, shuningdek, AQShning g'arbiy qismidagi aholisi kam bo'lgan mintaqalardagi va Alyaskadagi yaylov va o'rmonlar yerlari tashkil qiladi.

AQShda yerga nisbatan mulk huquqi o'zaro chambarchas bog'liq vakolatlar majmuidan iborat bo'lib, ularning bir qismi mulkdorga, boshqa qismi esa shaxsga mulk

huquqini bergan davlatga tegishli hisoblanadi. Davlat yer egalarining xo'jalik faoliyatiga umuman aralashmaydi, ulardan faqat soliq undirish bilan cheklanadi xolos. Amerikada yer solig'i – soliqqa tortishning alohida usullari va soliqlar hajmini belgilash orqali yerdan foydalanishga ta'sir etuvchi ta'sirchan vosita hisoblanadi.

AQShda yer qa'ri va foydali qazilmalardan foydalanish huquqi hukumatning tasarrufida qolgan. Shu bilan birga, federal hukumat yerdan foydalanishga ta'sirini kuchaytirishga intilmoqda. AQSh Kongressi Vakillar palatasi tomonidan qabul qilingan qonunga ko'ra, yer egalariga shtatlar yurisdiksiyasi ostidagi birinchi instansiya va apellatsiya sudlarini chetlab o'tib, federal sudlarga da'vo qilish imkoni berilgan [9, 162-b.].

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yer huquqining o'ziga xos jihatlari ko'rishimiz mumkin. Xususan, aksariyat Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni xususiylashtirish belgilangan bo'lsa-da, biroq ularni chet ellik fuqarolarga sotish taqiqlangan.

Masalan, Bolgariyada 1992-yilda qabul qilingan "Yer to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, yer bozorining erkin shakllanishiga alohida e'tibor berilgan. Qonunga muvofiq, qishloq xo'jaligi yerlarining 50 foizi sobiq mulkdorlariga qaytarilishi ko'zda tutilgan [10, 11–33-b.].

Ruminiyaning 1991-yildagi "Yer fondi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, har bir qishloq oilasiga 10 gektargacha (har bir kishiga 0,5 gektardan kam bo'lmagan miqdorda), biroq barchasini qo'shib hisoblaganda bir oilaga 100 gektardan oshmagan miqdorda, yer uchastkasini tekin olish huquqi belgilab berilgan [11, 1–3-b.].

Italiyaning zamonaviy yerdan foydalanish tizimi yigirmanchi asrning elliginchi yillarida boshlangan yer islohotlari ta'sirida shakllangan. Islohotlarning maqsadi yangi dehqon xo'jaliklarini tashkil etish, ijtimoiy va iqtisodiy inqirozga barham berish, ishlab chiqaruvchilar bilan yer o'rtasidagi aloqa-

dorlikni mustahkamlash, egalik hissini uyg'otishga qaratilgan edi. Yer islohotlari Italiyada ikki bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqichda alohida shaxslar egaligidagi xususiy yerlarning ekspropriatsiyasi (majburiy tortib olish) amalga oshirilgan.

Ikkinchi bosqichda qishloq xo'jaligi uchastkalarini maxsus shartnoma asosida topshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Yer uchastkasining oldi-sotdi shartnomasiga ko'ra, uning qiymatini 30 yil mobaynida har yili bo'lib to'lashga imkon berilgan. Shuningdek, mulkdor yerni 30 yil mobaynida sotishi taqiqlangan [12, 108–127-b.].

Fransiyada zamonaviy yerdan foydalanish tizimi asoslari 1945-yilda amalga oshirilgan agrar islohotlarga borib taqaladi. 1946-yilda yer qonunchiligiga kiritilgan o'zgartishlar asosida, har bir yerdan foydalanuvchining: yer uchastkasidan barqaror va uzoq muddatli foydalanish huquqi, xo'jalik boshqaruvi avtonomiyasi hamda mulkdor bilan nizo bo'lganda uning huquqlarining himoya qilinishi kafolatlangan. Bugungi kunda Fransiyada yerga nisbatan jamoaviy, individual (xususiy) va aralash shakldagi mulk shakllari amal qiladi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar esa faqatgina o'tmishdan shu hududda yashab kelgan fuqarolarga nisbatan berilishi ko'zda tutilgan [13, 65–74-b.].

Germaniyada yerga nisbatan mulkchilikning barcha shakllari amal qilsa-da, yerlarning 90 foizdan ko'prog'i xususiy mulkchilik hisoblanadi. Nemis yer qonunchiligiga ko'ra, qishloq xo'jaligi va o'rmon fondi yerlari muomalasini tartibga solishda ushbu yer uchastkalarini bo'lib tashlash, foydalanish maqsadni o'zgartirishni taqiqlagan. Bunda asosiy e'tibor yerlardan oqilona foydalanish; ularning xo'jalik muomalasini cheklashga yo'l qo'ymaslik; yerdan foydalanuvchilarning huquqiy majburiyatlarini bajarishlari, shu jumladan, soliq to'lovlarini to'lashlari (bu borada Germaniyada maxsus qishloq xo'jaligi sudlari

amal qiladi) ustidan nazoratni amalga oshirishga qaratilgan [14, 1-b.].

Shuningdek, bu sohadagi nazorat ishlari Germaniya Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish, qishloq xo'jaligi va yer iste'molchilarini muhofaza qilish vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi [15, 1-b.].

Buyuk Britaniyada atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari tizimi mavjud bo'lib, ular atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi tomonidan boshqariladi. Vazirlik asosan muvofiqlashtiruvchi funksiyalarni bajaradi va umumiy siyosiy rahbarlikni amalga oshiradi [16, 120–131-b.].

Ko'plab xorijiy mamlakatlarda yer taqsimoti, ya'ni restitutsiya (*lotin tilidagi "restitutio" so'zidan olingan bo'lib, "tiklash" degan ma'noni beradi. Jahon yer qonunchiligida restitutsiya deb jismoniy va yuridik shaxslardan olib qo'yilgan yoki tortib olingan yer maydonini keyinchalik ularning o'ziga to'liq yoki qisman qaytarishga aytiladi. Ushbu holat Ikkinchi jahon urushidan so'ng fashistlar Germaniyasi tomonidan egallab olingan yerlarning hujumga uchragan davlatlarga qaytarilishida ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlangan*) yer islohotining asosiy usuli hisoblanadi (Estoniya, Latviya, Litva, Slovakiya, Sharqiy Germaniya, Ruminiya, Bolgariya, Sloveniya, Xorvatiya, Serbiya, Chernogoriya, Makedoniya).

O'tgan asrning 90-yillarida SSSR parchalangandan so'ng Rossiya, Ukraina, Moldova va Ozarbayjonda qishloq xo'jaligi yerlari xususiyashtirila boshlangan.

Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon, Moldova, Ukrainada 1990-yillar oxiridan va 2000-yillar boshiga qadar qishloq xo'jalik yerlari kichik yer uchastkalarning taqsimlanishi orqali to'liq xususiyashtirilgan [17, 92–96-b.].

Bugungi kunda aksariyat MDH davlatlarida ham yer maydonlari to'liq yoki qisman xususiyashtirilishi amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq hozirgi kunga qadar ham yer maydonlari to'liq davlat egaligida qolayotgan mam-

lakatlar mavjud. Masalan, Tojikiston Konstitutsiyasining 13-moddasiga muvofiq, yer va boshqa tabiiy boyliklar mutlaq davlat mulki hisoblanadi [18, 2-b.].

Bugungi kunda ko'plab xorijiy mamlakatlarda yer xususiy mulk bo'lganligi sababli, yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish yuzasidan nazorat tushunchasi mavjud emas.

AQSh, Yevropa davlatlarining aksariyatida yer mulkdorlarining yer bilan bog'liq noqonuniy holatlari haqidagi nizolar mahalliy hokimliklar tomonidan berilgan arizalar asosida sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Hozirgi kunda MDH davlatlarining bir qismida prokurorlarga qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishi yuklatilganligi sababli faqat ushbu davlatlar qonunchiligida yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati masalalari o'z aksini topgan.

Ta'kidlash joizki, prokuratura organlarining yerlardan foydalanish va uni muhofaza qilish borasidagi vazifalari yuqorida ko'rsatilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan holda har bir davlatda prokuratura organlarining huquqiy maqomi asosida amalga oshiriladi.

Yuridik adabiyotlarni tahlil qilish shundan dalolat beradiki, ushbu masala xususida huquqshunos olimlar va amaliyotchi mutaxassislar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud.

Xususan, X. Zaytun [19, 75–81-b.] o'z qarashlarida prokuror hokimiyati mustaqil va xolis bo'lishi shartligi, prokuratura organlarining ijro hokimiyati tarkibiga kirishi ularga o'z faoliyatlarini xolis olib borishlariga to'sqinlik qilishi mumkinligi haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Biz ham ushbu muallifning fikrini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz.

Prokuratura organlarining faoliyat yo'nalishlari va vazifalari uning davlat organlari tizimida tutgan roli bilan ham bevosita bog'liqdir. Xususan, A. Allamuratov davlat organlari tizimida prokuraturaning egalagan huquqiy maqomi bo'yicha davlatlarni to'rtta guruhga, ya'ni prokuratura ijro, sud va

adliya idoralari tarkibiga kiradigan va hech bir hokimiyat tarmog'iga mansub bo'lmagan alohida organ sifatida faoliyat yuritadigan davlatlarga ajratadi [20, 8–9-b.]. Z. Ibragimov [21, 66–76-b.] va D. Xamdamovalar [22, 42–43-b.] ham o'z tadqiqotlarida shunga o'xshash tasniflashni bayon qilishgan.

Bizning fikrimizga ko'ra, bugungi kunda prokuratura organlari, biror-bir davlat hokimiyati tizimiga, ayniqsa, ijro hokimiyati tizimiga kirishini noto'g'ri deb hisoblaymiz.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda xalqaro tajribada prokuratura organlarining faoliyat yo'nalishi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ikkita modelga ajratishimiz mumkin.

Bunda prokuraturaning u yoki bu modelga kirishi ushbu davlatning huquqiy tizimi va davlat tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Birinchi modelda, prokuratura organlari, avvalambor, jinoiy ta'qib va ayblov idorasi hisoblangan, ikkinchi modelda u qonunchilik ustidan nazorat olib boradigan organ hisoblanadi.

Jumladan, AQSh prokuraturasi faoliyati ko'proq jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Atorneylarning (prokuror) eng muhim vazifasi esa sudda ayblovnini quvvatlashdir [23, 216–223-b.].

Fransiyada prokuratura Adliya vazirligi tarkibiga kirib, eng yuqori mansabdor shaxsi kassatsiya sudlaridagi ishtirokiga qarab, Bosh prokuror, respublika prokurorlari hamda katta va kichik instansiya prokurorlariga bo'linishadi.

Germaniyada ham prokuratura Adliya vazirligi tizimiga kirib, ijro etuvchi hokimiyatning bir qismi hisoblanadi. Prokurorlarning asosiy vazifasi jinoiy ta'qibni amalga oshirish va sudda ishtirok etish hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada davlat ayblovchilari xizmati joriy qilingan bo'lib, ularning asosiy funksiyasi – politsiya tomonidan tergov qilingan jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda davlat ayblovinini quvvatlashdan iboratdir.

Yaponiyaning qonunchiligida prokurorlarning vakolatlariga quyidagilar: jinoiy ishni qo'zg'atish yoki tugatish, dastlabki tergovni olib borish, tegishli qonunlar ijrosini sudlardan talab qilish, hukmlar ijrosini tekshirish va nazorat qilish kiritilgan [24, 34-b.].

Bu borada ko'plab olimlar o'zining ilmiy qarashlarini bayon qilib o'tgan. Xususan, Y. Knyazevaning fikriga ko'ra, g'arb davlatlarida prokuratura ayblov organi sifatida faoliyat ko'rsatishini, "umumiy nazorat"ni amalga oshirmasligini ta'kidlab, aksariyat mamlakatlarda prokuratura mustaqil tizim emas, balki sud yoki ijro hokimiyatining tarkibiy qismi hisoblanishini bayon qilgan [25, 98–101-b.]. Shunga o'xshash qarashlar S. Abdraxmanova va A. Kanatov [26, 26–31-b.] tomonidan ham bayon etilib, prokuratura organlari ijro hokimiyati (AQSh, Estoniya va b.lar) va sud hokimiyati (Ispaniya, Latviya, Gruziya va b.lar) tizimida faoliyat ko'rsatishini ta'kidlaydilar.

F. Malikov va B. Boymatovlar esa AQSh, Fransiya, Germaniya va Italiya prokuratura organlarining asosiy vazifasi – birinchi navbatda jinoiy ta'qibni amalga oshirishdan iborat [27, 50-b.] deb ta'kidlashgan.

Ikkinchi modelda prokuratura organlarining asosiy funksiyasi – bu qonunlar ijrosi ustidan nazorat hisoblanadi.

Xususan aksariyat MDH davlatlarida (Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va boshqalar) prokurorlar qonunlarning ijrosi etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Biroq ayrim MDH davlatlari mustaqillikka erishganidan so'ng o'z prokuraturalariga vazifa va funksiyalarni tashkillashtirishda "umumiy nazorat" funksiyasidan voz kechgan.

Masalan, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya va Moldova davlatlarida prokuratura organlari faoliyatidan "umumiy nazorat" funksiyasi olib tashlanganligi sababli bugungi kunda ular birinchi modelga kirishadi. Huquqshunos olim M. Zaprudskaya-

ning fikrlariga ko'ra, "Birinchi model prokuratura organlarida "umumiy nazorat" (*ya'ni qonunchilik ijrosi ustidan nazorat*) funksiyasini tugatishni ko'zda tutadi. Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston prokuratura organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasi birlamchi hisoblanganligi sababli ular ikkinchi model prokuratura tizimiga kiradi [28, 135–139-b.].

Ispaniyaning 1981-yil 30-dekabrda "Prokuratura to'g'risida"gi 50/1981-sonli qonuniga ko'ra, Ispaniya Bosh prokuraturasi tarkibida yerdan foydalanish, tarixiy boylıklar, iqtisodiy va o'rmon yong'inlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus prokurorlar tashkil etilishi belgilab qo'yilgan. Ularning asosiy vazifasi qilib, yerdan foydalanish, tarixiy obyektlar, tabiat va atrof muhitni muhitni muhofaza qilish, o'simlik va jonzoqlarni, uy hayvonlarini himoya qilish va o'rmon yong'inlariga qarshi kurashish borasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha tekshirish o'tkazish, bunday ishlarni sudga ko'rilishida prokuror ishtirokini ta'minlash ekanligi belgilab qo'yilgan [29, 1–10-b.].

Bundan kelib chiqadiki, Ispaniya prokuraturasi birinchi modelga kirsa-da, ya'ni jinoiy ta'qibni amalga oshirish va sudlarda ayblovni qo'llab-quvvatlash asosiy vazifasi sanalsa-da, biroq unga yuqoridagi qonun bilan ma'lum bir sohada nazorat funksiyasini ham amalga oshirish qo'shib yuborilganligi sababli yuqoridagi har ikkala modelga kiritish maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

Umuman olganda, xorijiy rivojlangan davlatlarda prokuratura organlarining vazifa va funksiyalaridan kelib chiqqan holda ularni bir uchta modelga ajratish, xususan:

Birinchi modelga – prokurorlarning asosiy vazifasi sudga davlat ayblovini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan AQSh, Fransiya, Angliya kabi davlatlarni;

Ikkinchi modelga – prokuratura tergov bosqichida va sudga jinoiy ta'qibni amalga

oshirish, fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha sudda qatnashish hamda sud ishlarida nazorat funksiyasini bajarishga qaratilgan, Germaniya, Italiya, Daniya, Yaponiya kabi davlatlarni;

Uchinchi modelga – asosiy vazifalaridan bir qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasi yuklangan, Rossiya, Belorussiya, Ukraina, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston kabi davlatlarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlar tajribasidan shu ko'rinadiki, yer maydonlarini navbatma-navbat xususiylashtirish orqali yerlardan maqsadli va oqilona foydalanilishi yuzasidan davlat nazorati kamaytirilib, bu boradagi masalalar ko'proq fuqarolik munosabatlar shaklida hal qilib kelinmoqda.

Bizning fikrimizcha, yerlardan foydalanish sohasidagi nizolarni faqatgina sud tartibida hal qilish, ko'proq moliyaviy choralar orqali qonun buzilishi holatlariga nisbatan munosabat bildirish maqsadga muvofiq. Albatta, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar kelgusida yuqoridagi kabi jarayonlarning ham bizning respublikamizda joriy etilishiga olib keladi.

Yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish masalasi aksariyat xorijiy davlatlar uchun yangilik hisoblanadi.

Biz yuqorida sanagan "qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati" funksiyasi yuklangan aksariyat xorijiy davlatlarda (Rossiya, Belarus, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston) yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan ham prokurorlik nazorati ham boshqa qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat kabi "umumiy nazorat" sifatida olib boriladi.

Biroq Tojikiston Respublikasida yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokurorlik nazorati boshqa nazorat yo'nalishlaridan alohida tarmoqqa ajratilgan. Xususan, Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-yanvardagi 1172-sonli farmoni

bilan Tojikiston Respublikasi Bosh prokuraturasida "Yerga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi" va uning hududiy bo'limlari tashkil qilingan bo'lib, ushbu boshqarma va uning hududiy organlari bevosita yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratga mas'ul hisoblanadi [30, 1–2-b.].

Ushbu amaliyot bizning respublikamiz qonunchiligida ham o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-138-son qarori qabul qilinib, unga ko'ra, prokuratura organlari zimmasiga yuklangan qo'shimcha vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida Bosh prokuratura tarkibida 8 ta shtat birligidan iborat bo'lgan Yer resurslari talon-toraj qilinishining oldini olish boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida esa umumiy soni 56 ta shtat birligidan iborat bo'lgan Yer resurslari talon-toraj qilinishining oldini olish bo'limlari tashkil etilgan.

Hozirgi o'tish sharoitida, mamlakatimizda yer resurslari, ayniqsa qishloq xo'jaligi yerlari hajmi oz miqdorni tashkil qilganligini inobatga olib, toki yer maydonlari va undan foydalanish shartlari AQSh va Yevropa davlatlaridagi kabi zonalashtirilmaguncha hamda yerlar haqiqiy egasini topmagunga qadar bunday yerlarni muhofaza qilish maqsadida sohada prokuror nazoratini yuqoridagi kabi alohida tarkibiy tarmoq orqali amalga oshirish to'g'ri bo'ladi.

Biroq xorijiy mamlakatlar tajribasini ayrim jihatlarini olgan holda, shuni aytish mumkinki, yer munosabatlari, ayniqsa, yer ajratish va undan foydalanish hamda yerlarni davlat zaxirasiga olish bilan bog'liq jarayonlarda qonun buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda ham, bunday munosabatlarni sudlarga ariza bilan murojaat qilish orqali hal qilish zarur.

Albatta, kelgusida yer maydonlari, ayniqsa, qishloq xo'jaligi yerlarining to'liq xususiyashtirilishi orqali ushbu sohadagi davlat nazorati, shu jumladan, prokurorlik nazorati tushunchalarining o'rnini ko'proq fuqarolik huquqiy munosabatlar egallaydi.

Xulosa

Yuqoridagi ilmiy va nazariy tahlillar, xoriy davlatlar prokuratura organlarining funksiya va vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi bir qator xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, prokuratura organlari tomonidan yer to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil etish natijasida G'arb davlatlarida prokuratura faoliyati asosan sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror ishtirokini ta'minlash va jinoyat qonunchiligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilganligi, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati funksiyasi MDHga a'zo mamlakatlarning aksariyatida yetakchi funksiya bo'lib qolayotganligi haqida xulosa qilindi.

Ikkinchidan, iqtisodiy rivojlangan davlatlarida (AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya va Angliya) prokuratura organlari qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasini bajarmaydi. Prokuror nazoratiga zaruratning yo'qligi esa mazkur davlatlarning tarixiy davlatchilik va huquq tizimiga egaligi, aholida qonunlarga hurmat, sudlarga bo'lgan ishonchining balandligi, kuchli advokatura va yuridik xizmat tizimi mavjudligi, jamoatchilik nazoratining kuchliligi bilan izohlanadi.

Uchinchidan, ayrim iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda yer tabiatni muhofaza qilish masalalarida prokuror nazoratiga ehtiyoj sezilib, maxsus prokuraturalar tashkil qilingan. Masalan, Ispaniyaning 1981-yil 30-dekabrdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 50/1981-sonli Qonuniga ko'ra, Ispaniya Bosh prokuraturasi tarkibida yerdan foydalanish, tarixiy boyliklar, iqtisodiy va o'rmon yong'inlariga qarshi kurashish bo'yicha maxsus prokurorlar tashkil etilishi belgilangan. Biroq ushbu prokuraturalarning vazifasi qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishga emas, balki ushbu sohadagi jinoyatlarni tergov ustidan nazoratni amalga oshirish hamda sudda ko'rilishida davlat ayblovini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

To'rtinchidan, Amerika, Angliya, Niderlandiya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti rivojlangan va yer munosabatlarini huquqiy tartibga solishning barqaror tizimlari yaratilgan. Mazkur hududlarda yer uzoq yillardan beri xususiy mulk sifatida berilganligi sababli bugungi kunda yer bilan bog'liq munosabatlar asosan fuqarolik sud tartibida hal qilinadi. Shu bois kelgusida bizda ham yerlarni xususiy mulk sifatida ajratish, yerlardan noqonuniy va maqsadsiz foydalanish holatlari bo'yicha ko'proq moliyaviy va soliq jarimalarini qo'llash orqali barham berish haqida to'xtamga kelindi.

REFERENCES

1. Muhammadbek, M. Improving the Methods of Forecasting the Diversification of the Land Fund in the Region. *International Journal of Engineering*, 2018, vol. 2 (4), pp. 88–92.
2. Land resources of the world. Available at: https://foxford.ru/wiki/geografiya/zemelniye-resursi-mira?utm_referrer%20=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F
3. Growing Trend of Criminal Prosecution of Actors Land Use Matters. Available at: <https://www.mondaq.com/unitedstates/land-law-agriculture/343926/academic-paper-growing-trend-of-criminal-prosecution-of-actors-in-land-use-matters>

4. Chervyakova Yu.G. Problems of the prosecutor's control over the implementation of land legislation in the Russian Federation. Moscow, 1999, p. 221.
5. Ashitkova T.V. Prokurorskiy kontrol' za ispolneniyem zemel'nogo zakonodatel'stva [Prosecutor's control over the implementation of land legislation]. Moscow, RGB, 2008, p. 222.
6. Kalugina O.V. Prosecutor's control over the implementation of land legislation in the Russian Federation. Moscow, 2013, p. 274.
7. Xolmo'minov J.T, Safarov J.I. Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi: Qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish [Natural Resource Law in Foreign Countries: Comparative Analysis and Legal Improvement]. Tashkent, TSIL Publ., 2012, pp. 40–41.
8. Natural Resource Law in Foreign Countries: Comparative Analysis and Legal Improvement. Available at: https://dpr.ru/journal/journal_7_9.htm
9. Dukhno N.A., Ivakin V.I. Lectures on the land law course. Moscow, Legal Institute MIIT Publ., 2014, p. 162.
10. Bueno R.A. Evaluating land reform and market in Bulgaria. *East-West Journal of Economics and Business*, 2007, vol. 10, no. 1, pp. 11–33. Available at: <https://www.u-picardie.fr/eastwest/fichiers/art57.pdf>
11. Samorukova A. Romania agrarian reform and fruit and vegetable safety. Available at: http://vasilieva.narod.ru/11_1_97.htm
12. Savino D. The "Land Need" of Italian Workers: from Unification to Agrarian Reform. *Christian Studies*. 2019, vol 4, no 2, pp. 108–127. Available at: <https://peasantstudies.ru/ru/category/12-2019-4-2?download=131>
13. Averina K. Features of land relations in French law. *State and Law*, 2012, no. 15, pp. 65–74.
14. Krylatykh E.N. Land reform in eastern Germany. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/zemelnaya-reforma-na-vostoke-germanii>
15. Germany's water sector. Method and experience. Available at: <https://www.umwelt.bundesamt.de/sites/default/files/medien/publikation/long/2754.pdf>
16. Vistorobets Ye.L. Environmental legislation of Russia, Great Britain, Canada and the Netherlands: a comparative legal analysis. Moscow, 2003, pp. 120–131.
17. Altiyev A.S. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida yerdan foydalanishni diversifikatsiya qilish [Diversification of land use in the context of deepening market reforms]. *Professional of the Year*, 2019, pp. 92–96.
18. Constitution of the Republic of Tajikistan. Available at: <https://prokuratura.tj/ru/legislation/the-constitution-of-the-republic-of-tajikistan.html>
19. Zeytun X. International Principles on the Independence and Accountability of Judges, Lawyers and Prosecutors: A Practical Guide. *International Commission of Jurists*, 2007, no. 1, pp. 75–81.
20. Allamuratov A.T., Ergashev A.A. Xorijiy mamlakatlarda prokuratura [Prosecution in foreign countries]. Tashkent, TSIL Publ., 2009, pp. 8–9.
21. Ibragimov Z.S. Mustaqillik va O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi (istiqlol yillaridagi huquqiy maqomi rivojlanishining qiyosiy tahlili) [Independence and the Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan (comparative analysis of the development of the legal status during the years of independence)]. Tashkent, 2011, pp. 66–76.
22. Xamdanova D. Prokuratura organlari faoliyatining qiyosiy tahlili [Comparative analysis of the activities of prosecutor's offices]. *Huquq va Burch*, 2020, no 4, pp. 42–43.
23. Avazov N.T. Xorijiy mamlakatlarda prokuraturaning o'ziga xos xususiyatlari [Peculiarities of prosecution in foreign countries]. *Problems of application and interpretation of legal norms: Proceedings of the republican scientific seminar*. Tashkent, TSUL Publ., 2018, pp. 216–223.
24. Umrzoqov Z., Boronov S. Yaponiyada prokuratura organlari faoliyati yuzasidan ba'zi mulohazalar [Some comments on the activities of prosecutor's offices in Japan]. *Court and law enforcement agencies*. Tashkent, TSIL Publ., 2009, p. 34.
25. Knyazeva Ye.G. Prosecutor's supervision in foreign countries. *Lawyer*, 2009, no. 1, pp. 98–101.

26. Abdraxmanova S., Kanatov A. Prokuratura organlarining o'rne va ro'lini aniqlash masalalari [Issues of determining the place and role of the prosecutor's office]. *Little Old Country*, 2016, vol. 4 (73), pp. 26–31.

27. Malikov F., Boymatov B. Xorijiy mamlakatlarda fuqarolik ishlari bo'yicha prokurorlik nazorati va ijro ish yurituvining o'ziga xos xususiyatlari [Peculiarities of prosecutor's control and enforcement of civil cases in foreign countries]. Court and law enforcement bodies. Tashkent, TSIL Publ., 2009, p. 50.

28. Zaprudskaya M. Sovershenstvovaniye prokurorskogo nadzora za ispolneniyem zakonodatel'stva [Improvement of the prosecutor's control over the execution of legal documents]. Available at: <http://elib.bsu.by/bitstream/123456789/186402/1/135-139.pdf>

29. The Prosecution Service. Organic Statute. Law. 1981, December 30, No. 20/1981. Prosecution Departament of Spain. Available at: <https://www.fiscal.es/documents/20142/147455/Spanish+Law+on+Prosecutors.pdf>

30. Decree of the President of the Republic of Tajikistan. 2019, January 4, No. 1172. Available at: http://79.170.188.68/show_doc.fwx?Rgn=133026